KORRUPSIYA – TARAQQIYOT ISKANJASI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali Rus tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Raimqulova Zulayxo

Ilmiy rahbar: Shamsiddinov Bahodir

Shamsiddinovbahodir23@gmail.com

+99893 948 76 90

Annotatsiya

Ushbu maqolada korrupsiya illati haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan. Korrupsiyaning insonlar uchun keltiradigan zarari uning ayanchli oqibatlari haqida qisqacha yoritib berilgan. Korrupsiyaning paydo bo'lishi. Uning jamiyatimizga ta'siri haqida ham ma'lumotlar bor. Korrupsiyaga qarshi yurtimizda olib borilayotgan ishlar, qonunlar tog'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya. Konstitutsiya. Qonunlar,chora-tadbirlar. Poraxo'rlik, ta'magirlik, illat. Islohot. O'zbekiston Respublikasi. Huquqiy savodhonlik, ijtimoiy soha. Davlat, jamiyat, kelajak avlod. Taraqqiyot.

Аннотация

В данной статье представлен краткий обзор злаб которым является коррупция. В статье кратко описывается вред, который коррупция причиняет людям, а также ее трагические последствия. Возникновение коррупция. Имеется информфция о его влиянии на наше общество. Предоставляется информфция о проводимой в нашей стране антикоррупционной работе и действующем законодательстве.

Ключевые слова: Коррупция. Конститутция. Законы, меры. Взятка, жадность, дефект. Реформа. Республика Узбекистан. Правовая грамотность, социальная сфера. Государства, общества, будущее поколение. Прогресс.

Abstract

This article provides a brief overview of the evil of corruption. The harm that corruption causes to people is briefly explained, along with its tragic consequences. Emergence of the constitution. There is information about its impact on our society. Information is provided on the anti-corruption work and laws being carried out in our country.

Keywords: Corruption. Constitution. Laws, measures. Bribery, greed, defect. Reform. Republic of Uzbekistan. Legal literacy, social sphere. State, society, future generation. Development.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Korrupsiyaning katta kichigi bo’lmaydi. U oddiy bir dastro’molcha bo’lsa ham baribir korrupsiyaligicha qolaveradi. Korrupsiya rivojlanishning eng kata dushmani hisoblanadi. Korrupsiya shunday bir illatki ma’lum bir sohaga emas, balki butun bir jamiyat, millat, davlat taraqqiyotiga to’g’anoq bo’la oladi. Har qanday davlatni ich ichidan yemiradigan illat desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Konstitutsiya har bir davlatning korrupsiya va poraxo’rlikka qarshi kurashishida asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi. O’zbekistonda ham bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar Konstitutsiyamizda belgilangan tartiblarga belgilangan holda amalga oshirilmoqda.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan g‘arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Muqaddas islom dinida ham korrupsiya butkul qoralangan. Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: «Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang» . deb aytib o'tilgan.[1]

Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, ta'lim sohasini past darajaga tushurib yuboradi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, raqobatni pasaytirib yuboradi va o'sish pasayadi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik va boshqa insonlar uchun zararli bo'lgan hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: «Ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi;» deb belgilab ketilgan.[2]

Konstitutsiya avvalo baxtimiz qomusi xisoblanadi. Fuqarolarning hayot tarzi yaxshilanishi uchun xizmat qiladi. Hamma narsa eng avvalo inson manfaatlari uchun yaratiladi. Eng qimmat va eng oliy ne'mat bu inson hayotidir. Har bir inson o'zi yashayotgan hayotini baxtli va sog'lom muhitda yashab o'tishga haqli. Buning uchun esa bizga davlatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarimizdan to'g'ri foydalana olishimiz kerak. O'z burchimiz va huquqimizni yaxshi bilishimiz kerak vas hart. Huquqini va burchini bilgan inson hech qachon hech qanday noto'g'ri hatti harakatga yo'l izlamasa kerak. Davlat organlari qarshi kurashib kelgan va bundan keyin ham kurashadigan bu illatni eng avvalo o'zimizdan boshlab davolashimiz kerak. Nima ish qilsak ham vijdonan sof ravishda bajarishimiz kerak.

Kimningdir cho’ntagiga pora solib emas hamma narsani qonun doirasida sekin astalik bilan bajarishimiz ham mumkin. Korrupsiyani o’ylab topgan ham aslida insonlarning o’zi. Biz kimgadir pora berib ishimizni oson bitirishimiz mumkin lekin bu xarakatimiz bilan boshqa birovning haqini yoki vaqtini o’g’irlayotgan bo’lishimiz mumkinligi haqida ham biroz bo’lsada o’ylab ko’rishimiz kerak.

O’zbekistonda hududlar bo’yicha korrupsiyada ayblanganlar (2024):

Surxondaryo – 396

Andijon – 882

Sirdaryo – 517

Navoiy – 366

Qoraqalpog’iston – 554

Jizzax – 266

Farg’ona – 512

Xorazm – 157

Toshkent – 392

Namangan – 877

Qashqadaryo – 695

Toshkent – 697

Buxoro – 400

Albatta bu ko’rsatkichlar juda achinarli.

Sohalar bo’yicha sudlanganlar soni:

Maktabgacha va maktab ta’lim – 654

Sog’liqni saqlash – 342

Banklar – 271

Bandlik – 202

Elektr tarmoqlari – 111

Mahalliy hokimiyat organlari – 106

Oliy ta’lim – 90

Gaz ta’minoti – 83

Suv ta’minoti – 76

Kadastr – 68

Notijorat nadavlat tashkilotlar – 39

Qishloq xo’jaligi – 36

Transport – 26

Xo’jalik yurituvchi subyektlar – 244. [3]

Bu ko’rsatkichlar judayam achinarli holatda. Buni ko’paytirish ham ozaytirish ham o’zimizga bog’liq. Avvalo o’zimizni tartibga solaylik. Har bir ishimizni soflik va tozalik asosida bajaraylik. Ayniqsa sog’liqni saqlash va oliy ta’limni bu ro’yxatda borligi kishini chuqur afsuslantiruvchi holat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, «Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi». Yurtboshimiz jon kuydirayotgan bir paytda biz ham birlashib korrupsiyani negiz ildizini quritishga o’z xissamizni qo’shishimiz kerak. Hayot tarzimizda sog’lom ma’naviy va ijtimoiy muhitda o’tkazishimiz kerak. Korrupsiyaga bepisandlik bilan qarash oqibatida kelajak avlodga nosog’lom jamiyatni shakllantirishimiz mumkin. Jamiyat kim? Jamiyat bu biz, siz, ota-onamiz, aka-ukamiz, opa-singlimiz, farzandlarimiz, qarindosh urug’larimiz! Hamma ham o’z haq huquqlaridan erkin foydalana olishiga to’siq bo’lmaslik uchun korrupsiyaga hech birimiz befarq va moyil bo’lmasligimiz kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro

huquqiy normalarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

2003- yil 31- oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

2000- yil 15- noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

1999- yil 27- yanvardagi Yevropa Kengashining «Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida» gi Konvensiyasi;

1999- yil 4- noyabrdagi «Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida» gi Konvensiyalari va boshqalar.

O‘zbekiston yuqorida ta’kidlangan xalqaro normalardan 2008- yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010- yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.[4]

O’zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash chora tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish» to‘g‘risida Qonuni ham qabul qilingan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma’qullangan.[5]

Ushbu qonun 6 bob 34 moddadan iborat. Qonunning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Korrupsiya nafaqat maml;akat ravnaqiga to’siq bo’ladi, ayni paytda odamlarni ertangi kunga kelajakka ishonchini susaytiradi. Davlat institutlarini obro’sizlantiradi. Shuning uchun ham bu illatga qarshi kurash chora tadbiri doirasi ushbu qonun ishlab chiqildi. Buning natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilgan. Bugungi kunimizda pora olish ham pora taklif qilish ham teng ko’rilib teng jazoga tortiladi. Ushbu qonunning qabul qilinishi davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati institutlarining bu illat bilan kurashda kuch va imkoniyatlarni yaratib beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari Erkin Yuldashevning aytishicha, davlat va jamiyatning barcha sohasida korruptsiyaning oldini olish, aholining huquqiy madaniyati hamda huquqiy ongini oshirish orqali jamiyatimizda ushbu illatga qarshi murosasiz munosabat mustahkamlanmoqda.

Joriy yil boshida O‘zbekiston Respublikasining «Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunni imzolandi. Prezidentimizning joriy yil 2 fevraldagi qarori bilan o‘z ichida 50 dan ortiq bandlarni qamrab olgan 2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur hujjatlar mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratdi. Aholi o’rtasida ham korrupsiyaga nisbatan qarashlar avvalgidan keskin farq qila boshladi.

Qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi va hududiy idoralararo komissiyalar tuzildi. Yuqorida nomi keltirilgan Davlat dasturining birinchi yo‘nalishi ijrosi doirasida 9 ta qonun va bitta davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilgan. Shundan uchta qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, to‘rtta qonun loyihasi Hukumatga kiritilgan. Ikkitasi esa vazirlik hamda idoralar bilan kelishish bosqichida turibdi. «Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida»gi Qonun esa joriy yil sentyabr oyidan kuchga kirdi. Aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ham faol ish olib borilayapti. Huquqiy tushunchasi bor bo’lgan fuqaro qayerda qanday huquqidan foydalanishni yoki qayerdadir qanday majburiyatlari borligini tushunadi. Jumladan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohasida korrupsiyaning oldini olish, ushbu illatni o‘z vaqtida aniqlash, chek qo‘yish hamda unga sabab bo‘layotgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha besh mingdan ortiq bevosita muloqotlar, aholi bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda boshqa tadbirlar o‘tkazildi. 200 mingdan ortiq

plakatlar tayyorlanib, joylarga tarqatildi. Prokuratura organlari tomonidan aholi, tadbirkorlar bilan 850 dan ortiq turli tadbirlar o‘tkazildi, 5 ta ijtimoiy videorolik tayyorlandi. Ma’lumki, «Transparency International» xalqaro tashkiloti tomonidan dunyo mamlakatlarida korrupsiya holatlarining yillik reytinglari tuziladi. Tashkilotning joriy yil noyabr oyida e’lon qilingan reyting so‘rovnomasida 119 ta mamlakatdan 160 mingdan ortiq kishi ishtirok etgan. 2016 yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston korrupsiyalashgan mamlakatlar ro‘yxatida 100 balldan 21 ball to‘pladi (ball qancha past bo‘lsa, korrupsiya darajasi shuncha yuqori bo‘ladi). 2013 yilda bu ko‘rsatkich 17 ballni tashkil qilgan edi. Bu MDHda birinchi o‘rin, ya’ni eng yaxshi natija, degani. «Korrutsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun, aholining huquqiy savodhonligi oshib borishi, tegishli davlat dasturi hamda davlat tomonidan mazkur illatni tag-tomiri bilan yo‘qotish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar mamlakatimizning reytingdagi mavqeini yanada mustahkamlashga zamin yaratdi[6]. Dono xalqimiz ilojsiz ishni o’zi yo’q deganiday korrupsiyani ham yo’qotish mumkin. Yosh avlodni sog’lom ong ostida tarbiyalash orqali bunga o’z xissamizni qo’shamiz.

So’z o’rnida aytishim kerakki men taxsil olayotgan bilim yurtda Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filialida korrupsiyasiz ta’lim jarayoni olib boriladi. Bu oliygohda talaba va ustozlar o’rtasidagi munosabatlar faqat bilim olish va bilim berish orqali o’rnatiladi. Ustozlarning baholashdagi haqqoniyligi taxsinga sazovor. Ustozlar talabchan, talabalar esa bilimga chanqoq va intiluvchan. Hech bir ustozni ta’magirlik qilganiga guvoh bo’lmadim. Darslar ochiq, sof tarzda qiziqarli interfaol tarzda olib boriladi. Ustozlarning bilim va malakalari juda ham yaxshi. Talabalarimiz uchun darsdan tashqari bilimlarini mustahkamlash uchun kutubxona faoliyat yuritadi. Hech qanday to’lovlarsiz u yerdagi kitoblardan foydalanib o’zlariga kerakli bilimlarni olishlari mumkin. Kompyuterlar ham yangi rusumlarda va internet tarmog’iga ulangan. Ta’magirlik va nohaq talabalarning baholariga aralashish holatlari yo’q. Ustozlarimiz ham darslarni chin ko’ngildan hech qanday g’arazliklarsiz talabalar

bilan do’stona ravishda olib borishadi. Bir so’z bilan aytganda Universitetimiz 100 foiz jahon talablariga javob beradi deya olmayman ammo nisbatan olganda ta’limda korrupsiyaning aralashmasligi qanday natija berishiga yaqqol misol bo’la oladi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak bu kunlarga yetishimiz uchun qanchadan-qancha buyuk allomalarimiz, jadidlarimiz o’z qonlari, jonlari bilan fidoiylik qilishdi. O’zbek degan millatni yo’q bo’lib ketishini oldini olish uchun qancha xarbiylarimiz vatanimiz posbonlari tunlari uxlamay xizmat faoliyatini olib borishmoqda. Yurtimiz ravnaqi uchun yaratilgan sharoitlarga yarasha ish qilmaslik menimcha vijdonimizga, olib borilayotgan islohotlarga xiyonat desak ham bo’laveradi.

«Islohotlarga xiyonat». Prezident korrupsiyaga qarshi kurashda «favqulodda holat» e’lon qildi:

Shavkat Mirziyoyev 2026-yildan barcha idoralarda korrupsiyaga qarshi yangi nazorat tizimi joriy etilishini e’lon qildi. «Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi, deb o‘ylaganlar adashadi… Davlatning har bir so‘mi bo‘yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi», — dedi prezident.[7]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning ta’kidlashicha:
qat’iy choralar ko‘rilmasa, O‘zbekiston belgilangan rivojlanish maqsadlariga erisha olmaydi:

«Korrupsiyaga qarshi favqulodda holat e’lon qilmasak, men aytgan raqamlarga erisha olmaymiz. Dunyo hamjamiyatining bizga ishonchi kamayadi».

Prezident barcha davlat idoralarida komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi joriy etilishi, Hisob palatasi vakillari faoliyati yo‘lga qo‘yilishini ma’lum qildi.

Bu islohotlarning barchasi biz uchun, kelajak avlod uchun olib borilyapti. Kelajakda farzandlarimiz kimningdir qo’lida qaram bo’lib emas balki o’z mustaqil sof fikriga ega yuksak ma’naviyatli, huquqiy bilimlarga ega bo’lgan namunali shaxs bo’lib yetishishi uchun xarakat qilinmoqda. Oilada farzandlarimizga tarbiya berar ekanmiz

ularga hamma narsaga sofdillik bilan qarashni, adolatli bo'lishni, birovni haqidan qo'rqishni, o'zbek millatiga yot bo'lgan g'oyalarga ergashmaslikka, bu hayotda hamma narsga o'z mehnati, bilimi bilan erishsagina yo'li to'g'ri ekanligini ongiga singdirib borishimiz kerak. Korrupsiyani yo'qotishni chorasini o'zimizdan o'z farzandlarimizdan boshlashimiz kerak. Xarom yo'llardan orttirilgan boylik huzur bermasligini farzandlarimizning quloqlariga quyib borsak menimcha biz ham yurtimiz taraqqiyotiga o'z xissamizni qo'shgan bo'lamiz. Farzandlarimiz bizning kelajagimiz yurtimiz poydevorlari. Ularni sog'lom muhitda o'stirish halol yedirib kiydirish bizning insoniylik burchimiz xisoblanadi.

Prezidentimiz nutqida: «Lavozimidan qat'i nazar, poraxo‘rlik va vakolatni suiste'mol qilish bilan bog‘liq har bir holat yuzasidan komplayens xizmati shaxsan menga hisob beradi. Hech kimga bo‘ysunmaydi. Mana shuni bilinglar», — deya takidlab o'tti.

Kim bo'lib ishlashidan qat'iy nazar davlat xodimi xalqimiz xizmati uchun o'z lavozimiga qo'yiladi. Lavozimidan foydalanib boshqalarning huquqlarini poymol qilishi xalqimiz unga nisbatan bergan ishonchini oqlay olmaslik bu judayam achinarli holat. Korrupsiyaga qarshi kurashish jinoyatchilikka qarshi kurashda ham kata ahamiyatga ega.

Yurtimizda korrupsiyani kamaytirish chora tadbirlari doirasida olib borilayotgan islohotlar ham o'z samarasini bermoqda.Davlat boshqaruvi tizimida «inson omili»ni kamaytirish maqsadida davlat va jamiyat boshqaruvi sohalariga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish yo‘lga qo‘yildi. Ma'muriy va qog‘ozbozlik to‘siqlarini bartaraf etish, ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish maqsadida barcha hududlarda 160 dan ziyod turdagi shaffof, qulay va tezkor xizmatlarni ko‘rsatuvchi 201 markaz tashkil etildi. Kommunal xizmatlarda tezkor va qulay bo'lgan onlayn xizmat ko'rsatish yo'llari joriy etildi. Bank xizmatlaridan ham uydan chiqmagan

holatda har bir bankning o’z ilovasi orqali foyfdalanishimiz mumkin. Bu qulayliklar barchasi vaqtimizni tejaydi sarf xarajatlarimizni yengillashtiradi. Call markazlari 24 soat o’z ish faoliyatini olib borishadi. Oliy ta’limga hujjat topshirish onlayn tarzda yo’lga qo’yildi. Bu bo’lajak talabalarni ovoragarchiliklardan qutqaradi. Raqamli hukumat biz fuqarolar uchun faqat va faqat qulayliklar yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni Karimning Baqara surasi 188-oyati.
2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 115-modda 10-bandi.
3. www.gazeta.uz
4. www.ombudsman.uz
5. Lex.uz
6. Mbaza.uz
7. Gazeta.uz
1. Mirzaakhmad ugli, B. S. (2025). Rituals and rituals related to ceramics: Teacher–apprentice traditions. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 3(4), 116–121.
2. Baxodir o’g’li, E. B. (2025, December). O‘ZBEK XALQINING AN’ANAVIY MAROSIM VA URF-ODATLARINING TARIXIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH FALSAFIY TAHLILI (QADIMGI DAVR, ISLOM DAVRI MISOLIDA). In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 20-24).
3. Gulbaxor, M., & Bahodir, S. (2025). TIL O ‘RGANISHDA CHATGPT, TARJIMA TIZIMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI. *TADQIQOTLAR*, *76*(3), 17-21.
4. Muzaffar, G., & Bahodir, S. (2025). INSON ORGANIZMIDA UCHRAYDIGAN ICHKI KASALIKLAR. *TADQIQOTLAR*, *76*(2), 71-74.
5. Bakhodir, S., & Dilshoda, R. (2025). EASTERN THINKERS OF THE ERA OF THE FIRST RENAISSANCE. *Global Science Review*, *8*(1), 682-687.

6. Zebo, N., & Bahodir, S. (2025). O ‘RTA ASRLARDA ANGLIYA (V-XV ASRLAR). *Global Science Review*, *11*(1), 85-90.
7. Шамсиддинов, Б., & Гуламов, М. (2023). ЛОГИЧЕСКИЕ СООТНОШЕНИЯ ФИЛОСОФИИ С ЛИТЕРАТУРОЙ. *Oriental Art and Culture*, *4*(3), 332-335.
8. YANGI, V. T. V. M., & YONDASHUVLARI, T. H. OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI “ZAMONAVIY JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA FARG’ONA.
9. Zebo, N., & Bahodir, S. (2025). O ‘RTA ASRLARDA ANGLIYA (V-XV ASRLAR). *Global Science Review*, *11*(1), 85-90.
10. Shamsiddinov, B. (2022). The importance of supporting innovative activities of entrepreneurs in uzbekistan. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, *11*(11), 165-170.